O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024 - yil 25 - iyun 189-9-0-Q/24 Sirdaryo viloyati hokimligi

Viloyatdagi chiqindi poligonlarida maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash bo‘yicha to‘lovlar tariflarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4845-sonli qarorining 4-bandi, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 13-fevraldagi 23-sonli bayoni 10-bandiga muvofiq hududiy poligonlarda maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash bo‘yicha to‘lovlar tariflarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunining 6, 14-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6 va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 24-maydagi 02/38/403-sonli tavsiya xati va O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Sirdaryo viloyat hududiy boshqarmasining 2024-yil 2-maydagi 79-sonli murojaati maqullansin.

2. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Sirdaryo viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan hududiy poligonlarda maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash bo‘yicha to‘lovlar tariflari, narxlarni tartibga soluvchi organ

bilan kelishgan holda 2024-yil 5-iyundan boshlab quyidagi cheklangan tariflar belgilansin:

a) 1 metr kub chiqindiga taklif etilgan 46 565 so‘m kamaytirilib **18 280 (o‘n sakkiz ming ikki yuz sakson) so‘m**;

b) 1 tonna chiqindiga taklif etilgan 113 022 so‘m kamaytirilib **44 175 (qiriq to‘rt ming bir yuz yetmish besh) so‘m** (QQS bilan birga).

3. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (F.Kushakov) tuman va shahar hokimliklariga joylarda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan hududiy poligonlarda maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash bo‘yicha to‘lovlar tariflariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish topshirilsin.

4. Mazkur qaror “Yangi Sirdaryo” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Maxmudaliyev**